

## LOTIN TILINI O'QITISH JARAYONIDA KLINIK KAFEDRALAR BILAN INTEGRATSIYALASHTIRILGAN MASHG'ULOTLARNING MAQSADLI YO'NALTIRILISHIDAGI NATIJALAR.

*Beknazarova Moxiya Kenjayevna*  
*assistent SamGMU.*

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi oliy tamlim va sog'liqni saqlash vazirligi oliy o'quv yurtlari oldiga malakali, xalqaro standartlarga mos mutaxassisni tayyorlash vazifasini qo'yadi. Meditsina oliy o'quv yurtlarida echimini kutayotgan asosiy muammolardan biri bu lotin-yunon tibbiy terminlarini o'qitish hisoblanadi. Bu fanga oxirgi vaqtlarda e,tibor kam ajratilmoqda , ayniqsa o'quv kurslarining oxirgi bosqich talabalari terminlarni qo'llashda qiynalib qolishmoqda. Natijada tibbiy terminlarni bilish sohasidagi bilim darajasi past ko'rsatkichni egallamoqda. Maqolamda meditsina oliy o'quv yurtlaridagi maxsus fanlar,ya'niy klinik fanlar bilan lotin tili fanining integratsiyasini kelishgan holda mashg'ulotlarni tashkillashtirish masalasini yoritmoqchiman.

**Kalit so'zlar:** klinik so'zlar, patalogik anatomiya, psixiatriya, klinik fikr maxsuli, terminoelementlar, so'z tuzilish- semantik analizi, anatomik terminlar, fundamental fanlar, grek-lotin ma'nodosh atamalar, maxsus leksika, Integratsiya, complex o'qitish, lotin tili kursi, o'quv jarayonining yunaltirilganligi, lingvistik aloqa, psixologik-pedagogik yondashuv, kasbiy propedevtik distsiplina,

Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi fani tibbiyot oliygohlarida birinchi bosqichda o'tiladi va talabalar uchun bu fan yangi fan, yangi til hisoblanadi. O'quv ob'ekti faqatgina so'zlar emas, balki fonetika, grafika,morfologiya,so'z birikmalarining sintaksisi, klassik lotin tilining leksik va so'z yasovchi materiallari bo'lib, bularning barchasi tibbiy va farmatsevtik fanlaridagi bo'limlarning sistematik produktiv terminlar hosil qiluvchi usullar majmuasidan iborat.Biz o'qitayotgan fan bo'lg'usi vrach, farmatseft va provizorlarning o'qishi davomiyligining ajralmas fundamental qismidir.

Deyarli respublikamizdagi barcha lotin tili o'qituvchlarining bitta maslagi mavjud bo'lib,u ham bo'lsa bu fanni o'qitishdagi asosiy vazifa -fanlararo integratsiyani to'ri tashkil qilish, yangi dpedagogik texnologiyalarni qo'llash va talabni to'g'ri qo'yishdir. Respublikamiz lotin tili o'qituvchilari o'zlarining pedagogic va terminlar boshqaruvi bo'yicha professional tayyorgarligini yetarli darajada mustaxkamlab olishgan. Talaba mashg'ulotlar boshlangan kunanoq lotin tili fani nima uchun kerakligini anglab yetadilar va o'zlarining rejalarini shunga qarab to'g'ri tuzib oladilar.

Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi fani katta uchta asosiy bo'limlardan iborat ekanligi hammamizga ma'lum. Bo'limlarning bunday joylashuvi meditsina fanlari bilan integratsiyani ta'minlaydi. Chunki birinchi kurs talabasi anatomiya fanida ishlatilgan lotincha yoki yunoncha terminlarning orfografiyasi, to'g'ri talaffuzi va qo'llanilish kriteriyalari bilan lotin tili fanining "Anatomiya" bo'limida tanishadi. Lotin tili va yunon tillari qo'llaniladigan bu o'quv kursi- uchta asosiy bo'lim-anatomogistologik, klinik va farmatsevtik terminlar majmuasidan iboratdir.

Xar bir bo'lim o'ziga xos grammatik, leksik va so'z yasash xususiyatiga ega bo'lib, o'z maxsus terminlariga ega.

Birinchi bo'lim "Anatomiya bo'limi" grammatik bilimlarning asosini tashkil qiladi va fanning boshqa bo'limlariga tayanch hisoblanadi. Anatomiya fani bilan to'g'ridan-to'g'ri maksimal sinxronisatsiyasiga erishadi. Talabadan har mashg'ulotda 35-40 tagacha so'z bilan tanishish va yod olish talabi qo'yiladi va bo'lim oxirida 350-400 so'z boyliklari birligini tashkil qiladi.

Ikkinchi bo'lim "Klinik terminlar" bo'limi bo'lib, so'z yasalishi va morfemalarga ajratish amaliyoti va teoriyasiga suyanadi. Klinika bo'lim ining strukturaviy birligi-atama elementlar va ulardan yasaladigan klinik terminlar modelidir

Talaba va o'qituvchining hamkorlikda ishlashi natijasi ikki tomonlama simantik vazifani bajarishdir. Talaba yunon tilidan o'z ona tiliga klinik terminni tarjima qilishi va teskari jarayon -o'z ona tilidan yunon tiliga tarjima qilishi, orfografik xatolarsiz yoza bilishi ,atama elementga ajrata olishi va talaffuz qila olishi talab etiladi.

Uchinchi bo'lim-farmatsevtik terminlar bo'limida talaba ikki tilda lotin-yunon tillarida to'liq so'z qo'llay olishi blan birga dori-darmon nomlaridagi ma'noli qismlar, ularning yasalish usullari, retsept strukturasini, retseptda qisqartmalar va retseptni to'g'ri yoza bilish ko'nikmalarini o'zlashtirishi lozim bo'ladi.

Bo'limning leksik materiali tizimli o'qitishni talab qiladi. Fe'l so'z turkumi va retsept, kimyoviy elementlar va retseptda ularning qo'llanilishi, tuzlar, kislota nomlari va retseptda ularning qo'llanilishi bularning barchasi bir-biriga uzviy bog'liq mavzular hisoblanadi. Retseptura bo'limida o'qituvchining eng asosiy vazifasi talabani ham grammatik, ham orfografik jixatdan savodxonligini oshirishdan iborat.

Ko'rib chiqqanimizdek lotin tili fanining barcha bo'limlari klinik fanlar bilan integratsiali darslarni talab qiladi.

Ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatadiki lotin tiliga ajratilgan 60 soatlik dars davomida tibbiy terminlarni to'g'ri tushunib yetish, qabul qilishga o'rgata olish mumkin xalos. Biroq bu vaqt ichida ko'nikma hosil qilish, ya'ni avtomatizm darajasini egallash qiyin. Ko'nikma esa olingan bilimni tizimli tarzda aktualizatsiya qilish orqali hosil qilinadi. Bu ko'nikmani hosil bo'lishi esa yo'qori kurslarda teoritik

va klinik fanlar tibbiy terminlarga kasbning asosiy faktori sifatida muntazam urg'u berib tursalargina amalga oshishi mumkin.

Meditsina institutlarida metodologiyaning asosiy vazifalaridan bittasi har tomonlama klinik fanlarning o'quv programmasi bilan uzviy bog'liqlikni optimal darajada amalga oshirishdir. Keling biz lotin tili "gorizontal chiziqda" harakatlanuvchi qo'yidagi kafedralarni qarab chiqamiz: anatomiya, gistologiya, biologiya.

Bularning aloqasi esa turli ko'rinishga ega: talaba bilan mashg'ulot, tugarakda aynan anatomik terminlar ustida ishlash, yosh o'qituvchilar bilan ishlash, bibliografik bo'lim bilan ishlash.

"Vertikal chiziq" bo'yicha esa o'qitishning maqsadi amaliy jihatdan hamma mashg'ulotlarda uzliksiz davom etishi kerak.

Farmakologiya va lotin tilining integratsiyasi juda muximdir. Chunki lotin tilidagi so'zlar orfografiyasi va tarjimasi farmakologiya fanida asosiy tayanch hisoblanadi. Shu jumladan anatomiya, gistologiya, patologik anatomiya kafedralarining integratsiyali o'quv jarayoni talaba uchun muximdir. Bu xolat retseptura bo'limining ketma-ketligining yoritilishi farmakologiya fanini retseptura bo'liming o'zagini tashkil qiladi. Anatomiya fanida har-bir bo'limning bo'limining ketma-ketligi lotin tili kursi bilan mos kelishi talabaga fanlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Lotin tili kursida o'tilgan mavzuning keying bosqichlarda patologik anatomiya darslarida tibbiyot terminlarining qo'llanilishini osonlashtiradi.

Bu integratsiyani har-xil ko'rinishda tashkillashtirish mumkin:

1. Kafedralararo ilmiy-amaliy konferentsiya,
2. O'quv-uslubiy smenarrlar.
3. Mujassamlashgan lektsiyalar.
4. Talabalar ilmiy tugaragidagi ma'ruzalar.

Integratsiya mavzusi ko'tarilar ekan o'quv jarayonining oxirgi natijasi- vrachlarimizning kelejkdagi ilmiy va amaliy faoliyatiga o'tkir bilim va yuqori savodxonlik bilan kirib borishlari biz ustozlar uchun eng muxim vazifadir.

#### **Foydalangan adbiyotlar:**

1. Бесков А.А. Мифология мифологии // Общество. Среда. Развитие. - 2015, № 1. - С. 116-120.
2. Mahmudov Zafar Mardanovich, Safarova Umida Aliaskarovna, Beknazarova Mokhiya Kenjaevna, Aytmuratova Perkan Genjebaevna, Sharipov Bobur Salimovich: Some Considerations about Legal Solutions and Practices of Certain Problems Writing Recipes  
<http://annalsofrscb.ro/index.php/journal/article/view/3085> Дата публикации 2021/4/14 Журнал Annals of the Romanian Society for Cell Biology Страницы 5341-5352

3. Y.S. Karimovna, A.P. Kenjabaevna, E.M. Bakhodirovna Phraseological units in the medical field of english and uzbek cultures.
4. Fomina Maide Anatolyevna, Beknazarova Mokhiya Kenzhaevna, Shamsiev Kakhramon Kamariddinovich: The role of word-building elements in teaching the translation-free reading of medical texts (<https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/1009>), Archive of Conferences: Vol. 20 No. 1 (2021): IMSCIT-6 USA (<https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/issue/view/23>)
5. The Most Important Criteria For Evaluating Student Knowledge (<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=12266413480502137232&btnI=1&hl=ru>) M.K. Beknazarova - Web of Scientist: International Scientific Research ..., 2022
6. Beknazarova Mokhiya Kenzhayevna, Ibragimova Dilbar Sadullayevna Aitmuratova Perxan Genzhebayevna: The effectiveness of the staged principle in the study of the latin language in medical institutions. Дата публикации 2021/5 Журнал International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS) Том 2 Номер ISSN: 2249-7382 | Impact Factor: 8.018 Страницы 62-67 Издатель
7. Aytmuratova Perxan Genjebaevna, Esanova Maftuna Bakhodirovna: the importance of teaching latin in medical schools Дата публикации 2022/12/17 Журнал Thematics Journal of Education Том 7 Номер 5
8. Aytmuratova Perxan Genjebayevna, & Asif Equebal. (2023). NOUNS IS THE 3RD DECLENSION. *Yangi O'zbekistonda Tabiiy Va Ijtimoiy-Gumanitar Fanlar Respublika Ilmiy Amaliy Konferensiyasi*, 1(7), 101–106.